

To'rayeva Guli Baxriddinova
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrası o'qituvchisi
turayevaguli8@gmail.com

XIX ASR BUXORO SHAHRINING TARIXIY TOPOGRAFIYASI VA AHMAD DONISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning ko'zga ko'ringan mutafakkiri, davlat arbobi, mohir hattot va olim Ahmad Donishning kartografik merosi, xususan, u tomonidan chizilgan Buxoro shahrining tarixiy-topografik rejasi (plani) tahlil qilinadi. Maqolada Ahmad Donishning shaharsozlik, me'morchilik va irrigatsiya tizimlariga oid chizmalari o'sha davrdagi Buxoro amirligining ijtimoiy-topografik qiyofasini tiklashda naqadar muhim manba ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqotda Ahmad Donish xaritasining o'ziga xos ilmiy jihatlari hamda bugungi kunda Buxoro tarixiy markazini restavratsiya qilish va shahar tarixini o'rganishdagi amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, Buxoro, P.I. Lerx, A.R. Muhammadjonov, tarixiy topografiya, kartografiya, shaharsozlik, xarita, plan (reja), irrigatsiya tizimi, tarixiy manbashunoslik.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ТОПОГРАФИЯ БУХАРЫ XIX ВЕКА И АХМАД ДОНИШ

Аннотация. В данной статье анализируется картографическое наследие выдающегося мыслителя, государственного деятеля, искусного каллиграфа и ученого XIX века Ахмада Дониша. Основное внимание уделяется составленному им историко-топографическому плану Бухары, который рассматривается как уникальный памятник среднеазиатской картографии. В работе обосновывается значимость чертежей и схем Ахмада Дониша в области градостроительства, архитектуры и ирригационных систем как фундаментального источника для реконструкции социально-топографического облика Бухарского эмирата указанного периода. Автором освещаются специфические научные аспекты карты, методы визуализации городского пространства, а также практическая роль данного наследия в современной реставрации объектов исторического центра Бухары и углубленном изучении урбанистической истории региона.

Ключевые слова: Ахмад Дониш, Бухара, П.И. Лерх, А.Р. Мухаммаджонов, историческая топография, картография, градостроительство, карта, план, ирригационная система, историческое источниковедение.

THE HISTORICAL TOPOGRAPHY OF 19TH-CENTURY BUKHARA AND AHMAD DONISH

Abstract. This article analyzes the cartographic heritage of Ahmad Donish, a prominent 19th-century thinker, statesman, master calligrapher, and scholar. The primary focus is placed on his historical-topographical plan of Bukhara, which is regarded as a unique monument of Central Asian cartography. The study substantiates the significance of Ahmad Donish's drawings and diagrams in the fields of urban planning, architecture, and irrigation systems as a fundamental source for reconstructing the socio-topographical image of the Bukhara Emirate during that period. The author highlights specific scientific aspects of the map, methods of visualizing urban space, and the practical role of this heritage in the modern restoration of historical sites in the center of Bukhara, as well as in the in-depth study of the region's urban history.

Key words: Ahmad Donish, Bukhara, historical topography, cartography, urban planning, map, irrigation system, historical source studies, architectural heritage, urban history.

Kirish. Buxoro shahri tarixiy topografiyasini o'rganish, jumladan, uning mudofaa devorlari, darvozalari va guzarlar tizimini aniqlash murakkab ilmiy jarayon hisoblanadi. Bu murakkablik, avvalo, shaharning ko'p asrlik va uzluksiz hayot tarzi bilan bog'liq. Shahriston hududida hayot 2500 yildan ortiq vaqt davom etayotganligi sababli, me'moriy qurilish tizimi muttasil qayta tiklangan. Bu esa eski inshootlar o'rnida yangilarining qad ko'tarishiga va shahar qiyofasining davriy o'zgarishiga olib kelgan. Arxeologik madaniy qatlamlarning haddan tashqari qalinligi va ularning vaqt o'tishi bilan aralashib ketganligi qadimgi mudofaa devorlari poydevorini aniq sanalashni qiyinlashtiradi.

Buxoroning bugungi kundagi yer usti topografiyasi uning ostida yotgan ko'p asrlik tarixiy me'morchilikning faqatgina eng so'nggi bosqichidir. Shahar mudofaa tizimi va guzarlar tarkibini o'rganish nafaqat arxeologik qazishmalarni, balki yozma manbalar va kartografik ma'lumotlarning chuqur qiyosiy tahlilini ham talab etadi.

Hozirgi kunda tadqiqotlarda shahriston va rabod darvozalarining aniq koordinatalarini belgilash, ularning tarixiy nomlarini yozma manbalardagi toponimlar bilan qiyoslash hamda mudofaa devorlarining hududiy chegaralarini aniqlashtirish eng bahsli masalalar bo'lib qolmoqda.

Buxoro shahrining so'nggi o'rta asrlardagi tarixiy topografik qiyofasini tiklashda elchi-sayyohlarning hissasi beqiyosdir. Mazkur soha vakillarining aksariyati professional harbiy topograflar bo'lganligi sababli, ular tomonidan chizilgan aniq chizmalar va rejalar shaharning shu davrdagi me'moriy tuzilishini o'rganishda eng ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Parfyonov va Fenin[4] kabi harbiy topograflar tomonidan tuzilgan rejalar shahar mudofaa tizimi, darvozalarining aniq koordinatalari va ichki ko'chalar tarmog'ini tushunishda alohida ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro shahri tarixiy topografiyasining nazariy va amaliy masalalari bir qator taniqli sharqshunos va arxeolog olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Jumladan, V. V. Bartold, I. I. Umnyakov, V. A. Shishkin, M. Saidjonov[8], O. A. Suxareva[6] A. R. Muhammadjonov[2], L. I. Rempel[5], A. I. Naymark[3], Ye. A. Davidovich[1], Ye. G. Nekrasova[4] va X. X. To'rayev[11] kabi mutaxassislarining izlanishlari shahar tarixini rekonstruksiya qilishda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Buxoro topografiyasining nazariy va amaliy masalalari bir asrdan ortiq vaqt davomida turli ilmiy yo'nalishlar kesishmasida o'rganib kelinmoqda. V. V. Bartold va I. I. Umnyakovning tadqiqotlari Buxoro shahrining islomga qadar va ilk o'rta asrlar davridagi topografiyasini ilmiy asosda aniqlab berib, shahar tarixini o'rganishda keyingi izlanishlar uchun muhim metodologik asos yaratdi.

V.A. Shishkin va L.I. Rempel arxeologik hamda me'moriy tahlil doirasida Buxoroning qiyofasini shaharsozlik madaniyati va tarixiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liqlikda tadqiq etganlar. Ularning izlanishlarida me'moriy obidalar, rejalashtirish tizimi va qurilish an'analari hudud topografiyasini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida ilmiy tahlil qilingan. Buxoro hududining xronologik qatlamlari A. I. Naymark va Ye. A. Davidovich tomonidan numizmatik materiallar hamda stratigrafik tahlillar asosida ilmiy izohlab berildi. Bu esa shahar topografiyasini aniq sanalash imkonini yaratdi.

Olga Aleksandrovna Suxareva - Buxoro shahri topografiyasi va xaritasini o'rgangan mutaxassis hisoblanadi. O.A.Suxarevaning 1958 yilda nashr qilingan "К истории городов Бухарского ханства. Историко-этнографические очерки" monografiyasida Buxoro shahrining eng dolzarb uch davrdagi VIII asr boshlarida, X-XII asrlarda va XVI asrlardagi tarixiy topografiyasi tahlil qilingan[7].

Shuningdek, muallifning yana bir qimmatli asari - 1966-yilda Moskvada nashr qilingan "Бухара XIX – начала XX вв.: позднефеодальный город и его население" [6] monografiyasining birinchi bo'limi ham Buxoro shahrining tarixiy topografiyasiga bag'ishlangan. Ilmiy monografiyada Buxoro shahri hududi va tarixiy topografiyasi, geografik joylashuvi hamda tabiati, bozorlar, karvonsaroilar, tarixiy joylar, aholi guzarlari, qabristonlar, shaharning qurilish rejasi haqida ma'lumot berilgan.

Buxoro shahrining tarixiy topografiyasi hamda kartografik manbalarini tadqiq etishda Ye. G. Nekrasovaning "О нескольких старых планах Бухары" [4] nomli maqolasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda muallif so'nggi uch asr davomida yaratilgan oltita muhim topografik reja va xaritalarni qiyosiy-tahlil asosida o'rganib, ularning mualliflik masalasi, yaratilish davri hamda tasvirlangan shahar infratuzilmasining aniqlik darajasini chuqur ilmiy asosda baholaydi. Ayniqsa, Nekrasova tomonidan xaritalardagi mudofaa inshootlari, darvozalar, guzarlar va asosiy kommunikatsiya yo'llarining tasviri solishtirma tahlil qilinib, ularning tarixiy ishonchlilik darajasi aniqlashtiriladi. Shu bilan birga, milliy manbashunoslik va tarixiy kartografiya yo'nalishida Ahmad Donish merosiga tayangan holda A.R. Muhammadjonov tomonidan Buxoro shahrining ichki tuzilishi va ijtimoiy-hududiy bo'linishi masalalari chuqur o'rganilgan. Uning tadqiqotlarida yozma manbalar bilan bir qatorda tarixiy reja va chizmalar ham kompleks tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, Muso Saidjonov, Y.G. Nekrasova hamda H. X. To'rayev kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda yozma manbalar va arxiv xaritalari o'zaro qiyosiy o'rganilib, Buxoro shahrining mudofaa tizimi, shahar devorlari, darvozalari hamda hozirgi kunda saqlanib qolmagan ayrim me'moriy ob'ektlarning ilmiy rekonstruksiya amalga oshirilgan. Ushbu yondashuv Buxoroning tarixiy topografiyasini yanada aniqroq tiklash va uning urbanistik rivojlanish bosqichlarini izchil tahlil qilish imkonini beradi.

Asosiy qism. Buxoro shahri xaritasini yaratilishida sharqshunos, arxeolog va numizmat Pyotr Ivanovich Lerx (1828–1884)ning hissasi katta. 1858-yilda N.P. Ignatyevning Xiva va Buxorodagi harbiy-diplomatik missiyasi vakili sifatida mintaqaga kelgan Lerx, 1860-yildan boshlab "Arxeologiya jamiyati"ning a'zosi sifatida o'z ilmiy faoliyatini yanada kengaytirdi[4].

P.I. Lerx faoliyatining eng muhim va ilmiy jihatdan qimmatli natijalaridan biri — o'sha davrning yirik mutafakkiri va allomasi Ahmad Donish bilan o'rnatilgan yaqin hamkorlikdir. Mazkur hamkorlik natijasida Buxoroning o'sha davr uchun eng mukammal hisoblangan topografik xaritasi vujudga keldi.

Buxoro topografiyasiga oid nodir xaritaning taqdirini o'rganishda Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari instituti arxividagi hujjatlar birlamchi ahamiyatga ega. Xususan, mazkur arxivning 36-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 1-varag'ida saqlanayotgan Ahmad Donish qalamiga mansub xarita o'zining unikalligi bilan ajralib turadi. Ushbu hujjatning ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lishi o'tgan asrning 60-yillariga borib taqaladi. 1963-yilda O'zbekiston SSR FA Sharqshunoslik instituti kichik ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi R. Gafurov tomonidan A.R. Muxammadjonovga ushbu hujjatning fotonusxasi taqdim etilgan. Ahmad Donish qalamiga mansub ushbu noyob topografik xarita haqidagi dastlabki ma'lumotlar keng jamoatchilikka 1964-yilda ma'lum bo'lgan. Xususan, «Fan va turmush» jurnalining 1964-yil 8-sonida mazkur hujjatga bag'ishlangan «Navodir muallifining nodir xaritasi» nomli ilmiy-ommabop maqola chop etilgan[2].

P.I. Lerx arxivida topilgan va Ahmad Donish muallifligida (yoki uning bevosita ishtirokida) yaratilgan ushbu topografik xarita XIX asr Buxoro shahrini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Mazkur xarita, avvalo, shaharning ko'chalari hamda irrigatsiya tizimining (ariq va hovuzlarning) joylashuvini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, unda shahar devorlari, mudofaa inshootlari va 11 ta darvozaning o'rnini aniq ko'rsatilgan bo'lib, Buxoroning harbiy va transport tizimini tiklashda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, xarita orqali guzarlar (mahallalar)ning joylashuvi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini tahlil qilish mumkin. Ayniqsa, har bir mahallaning kasbiy yoki etnik xususiyatlarini aniqlashda bu manba katta yordam beradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, hozirda saqlanmagan yoki vayron bo'lgan tarixiy obidalar — masjid, madrasa va boshqa inshootlarning asl o'rnini aniqlash va ularni ilmiy asosda qayta tiklashda ham ushbu xarita muhim rol o'ynaydi.

Shu sababli, mazkur xarita XIX asr Buxoro shahrining tarixiy-topografik tuzilishini o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida baholanadi.

Aynan Ahmad Donishning shaharning ichki hayoti va arxitekturasiga oid nodir ma'lumotlari Lerxning kartografik metodlari bilan birlashishi natijasida Buxoro tarixiy topografiyasi bo'yicha ishonchli manba shakllangan.

A.R.Muxammadjonov "Историко-топографический план Бухары Ахмада Дониша" maqolasida bu xaritani XIX asr o'rtalarida yaratilgan deb baholadi va Buxoroning yana bir miniatyura sifatida tayyorlangan xaritasi sifatida tahlil qildi. X.X.To'rayevning "Две точки зрения по историко-топографическому плану Бухары Ахмада Дониша" (Сборник статей, посвященных юбилею академика Дилором Юсуповой «Вопросы истории Центральной Азии в современной медиевистической интерпретации». – Ташкент -2021. – С. 185-188.) [11] nomli maqolasida ham topografik rejaning tuzilgan sanasi 1852-1858 yillar oralig'ida belgilanishi va katta ishonch bilan reja muallifligi Ahmad Donishga nisbat berilishi ta'kidlanadi. Reja muallifligi haqidagi dalillarini isbotlash uchun A.R.Muxammadjonov Ahmad Donishning musulmon hattotligidagi favqulodda iste'dodi va amir Nasrulloh (1826-1860) saroyiga yaqinligini haqida qayd etiladi. A.R.Muhammedjonov rejaning qo'lyozmasini boshqa asarlar – Ahmad Donishning dastxatlari bilan qiyoslab, bu reja muallifi shubhasiz Ahmad Donishdir degan ilmiy xulosaga kelinadi.

1965-yilda A.R. Muhammadjonov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan Buxoro shahri rejasi 52×44 sm o'lchamda, sayqallangan Samarqand qog'oziga miniatyura texnikasida ishlangan. Shahar hududi qizil rangda, ko'chalar oq chiziqlar bilan ifodalangan. Masjidlar jigarrangda, hovuzlar ko'k to'rtburchak va qabristonlar qora shtrixlar bilan ko'rsatilgan. Xaritada aks etgan asosiy ob'ektlar soni 150 dan ortiq turli nomdagi topografik punktlarni quyidagi funksional guruhlariga ajratish mumkin:

Ma'muriy va mudofaa tizimi: 1 ta Ark (uning ichki qismidagi 12 ta rejalashtirilgan ob'ekti bilan), 11 ta shahar darvozasi va 1 ta zindon.

Diniy va ta'lim muassasalari: 79 ta masjid, 7 ta yirik madrasa va 2 ta minora (Minorai Kalon va Govkushon).

Ijtimoiy-maishiy va savdo infratuzilmasi: 12 ta karvonsaroy, 7 ta bozor, 4 ta chorsu (savdo gumbazlari) va 7 ta hammom.

Gidrografik tarmoq: 1 ta asosiy kanal (Shohrud) va undan ayrilgan 11 ta tarmoq, 78 ta hovuz hamda 11 ta buloq va botqoqliklar.

Chorbog'lar va memorial hududlar: 31 ta mahalla, 4 ta chorbog' (yozgi bog'lar) hamda 38 ta qabriston va alohida maqbaralar.

Magistral yo'llar : Shahar ichkarisidan tashqariga yo'nalgan 11 ta asosiy magistral yo'l.

Ahmad Donish rejasidagi Buxoro shahrining ma'muriy-hududiy 13 ta asosiy qismga [4] ajratilgan.

T/r	Arab imlosidagi nomi	Transkripsiyasi	O'zbekcha nomi
	ارک	Ark	Ark (Qal'a/Sitalel)
	محله قاضیان	Mahalla-i Qāziyān	Qoziyon mahallasi
	محله مردھشویان	Mahalla-i Murdashūyān	Murdasho'yon mahallasi
	محله مارکشان	Mahalla-i Mārkuṣhān	Morkushon mahallasi
	محله ریگستان	Mahalla-i Registān	Registon mahallasi
	محله چشمه ایوب	Mahalla-i Chashma-i Ayūb	Chashmai Ayub mahallasi
	محله تفتنگچیان	Mahalla-i Tufangchiyān	Tufangchiyon mahallasi
	محله کلامگران	Mahalla-i Kulāhgarān	Kulolgaron (Kulohgaron) mahallasi
	محله بازار خواجه	Mahalla-i Bāzār-Khwāja	Bozorxo'ja mahallasi
	محله جویبارہ	Mahalla-i Jūybāra	Jo'ybor mahallasi
	محله صوفیان	Mahalla-i Sūfiyān	Sufiyon mahallasi
	محله خیابان	Mahalla-i Khiyābān	Xiyobon mahallasi
	محله ادرسبافان	Mahalla-i Adrasbāfān	Adrasbofon mahallasi

Xaritada shahar tashqarisidagi hududlar och yashil fon bilan berilgan bo'lib, quyidagi yirik aholi punktlari va mahallalar nomi qayd etilgan: [4]

T/r	Arab imlosidagi nomi	Transkripsiyasi	O'zbekcha nomi
1	فیض آباد	Fayzābād	Fayzobod
2	دلکشا	Dilkushā	Dilkusho
3	فتح آباد	Fathābād	Fatxobod
4	عرب آباد	‘Arabābād	Arabobod
5	محله حقمازار	Mahalla-i Haqqamazār	Haqqamazor mahallasi
6	اوترار	Otrār	O'tror
7	محله شیرگران	Mahalla-i Shirgarān	Shirgaron mahallasi
8	محله زیر بلاد	Mahalla-i Zer-i Bilād	Zeribilod mahallasi
9	قلندرخانه	Qalandarkhāna	Qalandarxona
10	تاتار محله	Tātār-mahalla	Tortor mahalla

Ahmad Donish rejasida Buxoro shahar mudofaa devorining 11 ta darvozasi arab imlosida va aniq tartibda ko'rsatilgan

Buxoro shahar darvozalari (Ahmad Donish rejasidagi nomlanishi). XIX asrning ushbu nodir manbasida shahar darvozalari quyidagicha qayd etilgan:

T/r	Arab imlosidagi nomi	Transkripsiyasi	O'zbekcha nomi
1	دروازه امام	Darvāza-i Imām	Imom darvozasi
2	دروازه سمرقند	Darvāza-i Samaraqand	Samarqand darvozasi
3	دروازه فیض آباد	Darvāza-i Fayzābād	Fayzobod darvozasi
4	دروازه بهاء الدین	Darvāza-i Bahā' ud-Dīn	Bahouddin (Mozor) darvozasi
5	دروازه قرشی	Darvāza-i Qarshī	Qarshi darvozasi
6	دروازه صلاحخانه	Darvāza-i Sallākh-khāna	Salloxona (Salohxona) darvozasi
7	دروازه نمارگاه	Darvāza-i Namāzgāh	Namozgoh darvozasi
8	دروازه قراکول	Darvāza-i Qarākūl	Qorako'l darvozasi
9	دروازه شیرگران	Darvāza-i Shīrgarān	Shirgaron darvozasi
10	دروازه تالیپاش	Darvāza-i Tālīpāsh	Talipoch darvozasi
11	دروازه اوغلان	Darvāza-i Oghlān	O'g'lon darvozasi

Ahmad Donish rejasining boshqa kartografik manbalardan ustunligi shundaki, u "yopiq topografik hududlar" (Ark ichi, amir saroylari) haqida ichki ma'lumotlarni bera olgan.

Boshqa rus tadqiqotchilari Ark ichkarisiga kirish imkoniga ega bo'lmaganliklari sababli, ularning rejalarida sitalel ichi bo'sh yoki umumiy sxematik tarzda qolib ketgan.

T/r	Arab imlosidagi nomi	Ilmiy translyatsiya	O'zbekcha tavsifi
1	دستورخوان بالا	Dustokhona-i bolo	Yuqori zindon kamerasi
2-3	اندرون	Andarūn	Andarun (Haram yoki ichki shaxsiy hovli)
4	خانه دسترخوانچی	Khona-i dasturkhonchī	Dasturxonchi xonasi (taomlarga mas'ul amaldor xonasi)
5	ضرابخانه	Zarrābokhona	Zarbxona (Tanga zarb qilinadigan joy)
6	عرضخانه	Arzkhona	Arzkhona (Arizalar qabul qilinadigan qabulxona)

7	مسجد امير	Masjid-i amir	Amir masjidi (Sitalel ichidagi jome masjidi)
8	آبخانه	Obkhona	Obxona (Suv saqlanadigan joy yoki mahbuslar kamerasi)
9	نقارخانه	Naqorakhona	Noqoraxona (Nog'orachilar turadigan baland peshtoq)
10	کنهخانه	Kanakhona	Kanaxona (zindon qismi)
11	خانه شریف شهر	Khona-i sharif shahr	Shahar aslzodalari xonasi (Kattalar to'planadigan joy)
12	دروازه ارک	Darvaza-i ark	Ark darvozasi (Asosiy kirish qismi)
13	در ارک	Dar-i ark	Ark eshigi (Ichki darvoza yoki darcha)

Ushbu 12 ta ob'ektning nomlanishi Buxoro amirligining saroy, davlat boshqaruvi va sitalel ichidagi xo'jalik hayotini rekonstruksiya qilish uchun yagona manba bo'lib xizmat qiladi.

Rejaning eng muhim ilmiy yangiligi shaharning 12 ta yirik ma'muriy birlikka — mahallalarga bo'linganligidir. Avvalgi tadqiqotlarda inkor etilgan ushbu bo'linish aslida amirlik tugatilgunga qadar saqlangan "jarib" tizimidir. Jariblar orasidagi chegaralar asosiy magistral yo'llar bo'ylab o'tgan bo'lib, ular kunduzgi vaqtda shahar mudofaasini muvofiqlashtirish uchun xizmat qilgan.

Xaritada 300 ga yaqin ob'ektning fors-tojik tilida batafsil tavsiflanishi uning manbashunoslik qimmatini oshirsa-da, undagi ayrim topografik noaniqliklar (Fayzobod darvozasi asossiz kiritilishi, Namozgoh va Shayx Jalol darvozalarining tushirib qoldirilishi) hujjatning tabiati borasida ilmiy munozaralarga sabab bo'ladi.

Tadqiqot doirasida ushbu ziddiyatli holatni quyidagicha xulosalash mumkin:

Mualliflik masalasida A.R. Muhammadjonov va O.A. Suxareva fikrlaridagi munozarani inobatga olgan holda, Ahmad Donishni loyihaning g'oyaviy rahbari va asosiy mutasaddisi deb hisoblash maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, mazkur hujjat qat'iy muhandislik chizmasi emas, balki mahalliy manbashunoslik va badiiy kartografiya an'alarini o'zida mujassam etgan, ma'lum darajada subyektivlikdan xoli bo'lmagan noyob tarixiy-topografik manba sifatida baholanishi maqsadga muvofiq[11].

Xulosa. Buxoro shahri va uning atrof hududlarini aks ettiruvchi tarixiy topografik reja o'zining mazmunan boyligi bilan ajralib turadi. Mazkur reja asosida shaharning ichki tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi hamda urbanistik rivojlanish darajasi haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Unda 300 dan ortiq topografik nuqtalar va tarixiy yodgorliklar tasvirlangan bo'lib, ular orasida 31 ta mahalla, 11 ta shahar darvozasi, 4 ta chorbog' (yozgi bog'lar), 4 ta chorsu (gumbazli savdo yo'laklari), 7 ta hammom, 78 ta hovuz, 79 ta masjid, 7 ta madrasa, 38 ta qabriston, 12 ta karvonsaroy, 7 ta bozor, 2 ta minora, 1 ta zindon, 11 ta botqoqlik va buloqlar, 1 ta magistral kanal (11 ta tarmoqqa ega), 11 ta asosiy yo'l hamda ark va uning ichki tuzilishiga oid 12 ta obyekt qayd etilgan. Umuman olganda, rejada 150 dan ortiq topografik obyekt nomlari alohida ko'rsatilgan bo'lib, bu holat manbaning yuqori darajadagi aniqligi va tafsilotlarga boyligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Давидович Е. А. Дискуссионные вопросы в книге А. М. Беленицкого, И. Б. Бентович, О. Г. Большакова «Средневековый город Средней Азии» // Древность и средневековые народов Средней Азии (История и культура). — М.: Наука, 1978. — С. 103–116.
2. Мухамеджанов А. Р. Историко-топографический план Бухары Ахмада Дониша // Общественные науки в Узбекистане. — 1965. — № 5. — С. 31–42.
3. Наймарк А. И. К исторической топографии Бухары // Тезисы докладов и сообщений Всесоюзной конференции «Бартольдские чтения – 1990». — М.: Наука, 1990. — С. 55–56.

4. Некрасова Е. Г. О нескольких старых планах Бухары // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. — 2003. — № 6. — С. 61–66.
5. Ремпель Л. И. Далёкое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства старой Бухары. — Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1981. — 304 с.
6. Сухарева О. А. Бухара XIX – начала XX вв.: позднефеодальный город и его население. — М.: Наука, 1966. — 292 с.
7. Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). — Ташкент: Издательство АН УзССР, 1958. — 145 с.
8. Saidjonov M. Buxoro shahri va uning eski binolari / tarj., soʻzboshi va sharhlar H. Toʻrayev. — Toshkent: IFEAC, 2005. — 58 b.
9. Toʻrayev H. Buxoro tarixi: oʻquv qoʻllanma. — Buxoro: Durdona nashriyoti, 2020.
10. Toʻrayev H. Buxoroning nechta darvozasi boʻlgan? // Buxoronom. — 2021. — 1- poyabr. — № 87. — B. 4.
11. Toʻrayev H. X. Две точки зрения по историко-топографическому плану Бухары Ахмада Дониша // Вопросы истории Центральной Азии в современной медиевистической интерпретации: Сборник статей, посвящённый юбилею академика Дилором Юсуповой. — Ташкент, 2021. — С. 185–188.